

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA QO'LLANILGAN ANTROPONIMLAR

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Asar va she'rlarni yozishda ijodkor har bir so'zni ma'lum bir maqsad asosida qo'llaydi. Ana shunday birliklar antroponim bo'lsa, uni yanada chuqurroq tahlil qilish va shu shaxs haqida ma'lumotga ega bo'lmasak asar mazmunini to'liq anglab yetmaymiz. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlarida qo'llanilgan antroponimlar haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: Onomastika, antropanimika, antroponim, ism, familiya, Abdulla Oripov.

Abstract: When writing works and poems, the creator uses each word based on a specific purpose. If such units are anthroponyms, we will not be able to fully understand the content of the work if we do not have a deeper analysis and information about this person. This article provides information about the anthroponyms used in Abdulla Oripov's poems.

Key words: Onomastics, anthroponymics, anthroponym, name, surname, Abdulla Oripov.

Til va adabiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tilning barcha qirralari adabiyot orqaligina namoyon bo'ladi. Adabiy til ma'lum qonun-qoidalar asosida shakllangan til hisoblanadi. Adabiy tilda sheva elementlari uchramaydi, lekin badiiy tilda biz sheva elementlarini uchratamiz. Til shevadan so'z olib boyishi tilning ichki boyishi hisoblanadi. Badiiy asarlar lingvistik jihatdan tahlil qilinishi tilning barcha qirralarini ochishda yordam beradi. Asarlarda qo'llaniladigan onomastik birliklar ham xalq hayotini aks ettiradi. Shoir yoki yozuvchi antroponimlarni qo'llash orqali o'sha asardagi qayramonning qaysidir jihatini nazarda tutgan bo'ladi.

Biringiz **Otabek**, biringiz **Kumush**,

Doim yashnab tursin sevgingiz bog'i.

Haqiqiy muhabbat bilmasin so'lish,

Ustoz **Qodiriyning** bu ilk sabog'i.

Abdulla Qodiriy - jadid adabiyotining yorqin vakillaridan, Julqunboy taxallusi bilan ijod qilgan. Abdulla Qodiriy Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiyalangan, arab, fors, rus tillarini bilgan. Abdulla Oripov „To'y“, „Ahvolimiz“, „Millatimga“, „Fikr aylagil“ she'rlari, „Baxtsiz kuyov“ dramasi, „Uloqda“, „Juvonboz“ hikoyalari, „O'tkan kunlar“, „Mehrobdan chayon“ romanlari muallifi. Abdulla Qodiriy asarlari dastlab gazetada e'lon qilingan. Har bir sonni mushtariylar intizorlik bilan kutishgan. Asarlarida xalqning ijtimoiy ahvoli tasvirlangan. Kumush Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romanining asosiy qahramonlaridan biri. Mirzakarim qutidorning yolg'iz qizi. Kumush Marg'ilonning eng go'zal qizlaridan. U Otabek bilan turmush

quradi. Asar soʻngida farzandini dunyoga keltirgach, kundoshi Zaynab tomonidan zaharlanib oʻldiriladi. Otabek ham asarning asosiy qahramonlaridan biri. Yusufbek hojining oʻgʻli savdogarlik bilan shugʻillanadi. Margʻilonga ham savdo ishlari bilan kelib Kumush bilan turmush quradi. Otabek oʻzining mardligi bilan kitobxonlarning sevimli qahramoniga aylanadi.

Lahzada kuch yigʻding **Alpomishsimon**,

Yaloving boʻloldi moviy osmonlar.

Oyoqqa qalqqanda **Sohibqironim**,

Yov bossa ,tigʻingni qayragin, deding.

„Alpomish” xalq dostoni boʻlib, bu dostonda mardlik aks ettirilgan. Xalq dostoni ogʻizga oʻtib bugungacha yetib kelgan. Dostonning turli xil variantlari bor. Doston bundan ming yil oldin shakllangan boʻlsada, tub paydo boʻlishi miloddan avvalgi yuz yilliklarga borib taqaladi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov „Alpomish” dostoni haqida shunday degan: „„Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgoʻy boʻlishga, oʻz yurtimizni, oilamiz qoʻrgʻonini qoʻriqlashga, doʻst-u yorimizni, or-nomusimizni otabobolarimizning muqaddas mozorlarining har qanday tajovuzdan himoya qilishga oʻrgatadi”. Vatanimizda 1999-yil „Alpomish” dostonining 1000 yilligi keng miqiyosda nishonlanadi. Dostonning boshqa qardosh xalqlarda ham variantlari uchraydi. Oyoqqa qalqqanda **Sohibqironim**, ushbu satrda Sohibqiron deb Amir Temur nazarda tutilgan. Amir Temur - Temuriylar imperiyasining asoschisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari davomida bir marotaba ham magʻlub boʻlmagan. Amir Temurning „Temur tuzuklari” asarida uning barcha yurishlari hamda jang davomida qoʻllagan strategiyalari haqida ham maʼlumotlar keltirilgan. Amir Temur oʻz davrida bir bolaga bir lagan tilla berib, mamlakatni aylanib chiqarar ekan, shu davrda bir lagan tillada qanday olib ketilgan boʻlsa shunday qaytarib kelinar ekan. Bunda Amir Temur davrida mamlakatda tinchlik hukm surganini, hattoki oʻgʻrilar ham boʻlmaganidan dalolat beradi.

Baxtga yor doim **Navoiy** toki
Jomiy bor ekan,

Biz ular qoʻygan tamaldan,
Oʻzbekim tojik bilan.
Fahm etib boqsang agarda,
Biz qoʻsha sayyoramiz,
Bu **Ali** soʻzlar **Zuhaldan**,
Oʻzbekim tojik bilan.

Alisher Navoiy oʻzbek adabiy tilining asoschisi boʻlib, turkiy tilning rivoji uchun ulkan hissa qoʻshgan. Alisher Navoiy yoshligidan ilm-fan bilan shugʻillangan. „Xamsa” dostonini yozish orqali turkiy tilning barcha imkoniyatlarini koʻrsatib bergan. Alisher Navoiy umrining soʻnggi damlarida „Mahbub ul-qulub” asarini yozadi, bu asarda mutafakkirning hayoti davomidagi kuzatishlari, toʻplagan tajribalari yozilgan. „Munshaot” nomli maktublar toʻplamida Husayn Bayqaro, Badiuzzamon va boshqa tarixiy shaxslarga yozilgan maktublar jamlangan.

Jomiy - Abdurahmon Jomiy Hirotda 1414-yilda tavallud topgan. Alisher Navoiy Jomiyning pir deb bilgan. Jomiy fors-tojik tilida ijod qilgan. Alisher Navoiy „Xamsat ul-mutahayyirin” asarida Jomiyning 38 ta asarini sanab oʻtgan. Jomiy ham „Xamsa” yozgan ijodkorlardan. Jomiyning „Xamsa”si yettita dostonidan iborat. Bu yettita dostonidan iborat boʻlganligi sababli

„Haft avrang” deb atalgan. Asar „Silsilat uz-zahhab”, „Salomon va Absol”, „Tuhfat ul-ahrar”, „Subhat ul-abror”, „Yusuf va Zulayho”, „Layli va Majnun”, „Xiradnomai Iskandariy” dostonlaridan iborat.

Asarni onomastik jihatdan tahlil qilish orqali asarlarda, she’rlarda qo’llanilgan har bir onomastik birliklarning qo’llanilish maqsadlarini bilamiz. Tahlil orqali shaxslar haqida ham ma’lumotlarga ega bo’lamiz hamda tilshunoslik rivojiga ham o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Yo‘ldoshev O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand – 2011
2. M. Xudoyorova Onomastika Toshkent “Muxr-Press” 2020
3. T. Nafasov., V. Nafasova O‘zbek tili toponimlarining o‘quv lug‘ati Toshkent “Yangiavlod” 2007